

Date: 3rdDecember-2024

**HAMID OLIMJON VA UNING XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTI
TARAQQIYOTIDA TUTGAN O‘RNI.**

Pardaeyva Dilrabo Egamberdieyvna

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi tarbiyachisi



Hamid Olimjon XX asr o‘zbek adabiyotining zabardast namoyandalaridan biri bo‘lib, hassos shoir, iste‘dodli dramaturg, o‘tkir publitsist va adabiyotshunos sifatida mashhur. Hamid Olimjon 20-yillarda adabiyotimiz maydoniga Oybek, G‘. G‘ulom, Uyg‘un, A. Qahhor, K. Yashin, Mirtemir kabi noyob ijodkorlar bilan bir qatorda kirib keldi va ular bilan yelkama-yelka turib samarali ijod qildi. Shoir ijodida yangi o‘zbek adabiyotining ko‘pgina fazilatlari va muhim xususiyatlari o‘z aksini topgan. Ana shuning uchun ham yangi o‘zbek adabiyotini shoir ijodisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

“Men o‘zbek xalqi nomidan so‘zlayman!” Ajoyib iste‘dod egasi Hamid Olimjon shunday mislsiz jur‘at bilan so‘zlashga haqli edi! Chunki u aziz umrini, nodir iste‘dodini, bitmas – tuganmas kuch – g‘ayratini o‘z xalqiga baxshida etgan ulkan qalb egasi edi. O‘ttiz besh yillik qisqa, ammo yorqin, sermazmun hayoti davomida bu ulig‘ zot yaratgan asarlar, amalga oshirgan ishlar, u olib borgan jo‘shqin jamoatchilik faoliyati kitobxonni hayratga soladi. Shoir Hamid Olimjon o‘zbek adabiyoti va madaniyatining ravnaqi yo‘lida yonib yashadi, yonib ishladi va ana shu fidoyiligi bilan xalqimiz xotirasida, kelajak avlodlar yuragida mangu qoldi.

Hamid Olimjon o‘z asarlarida voqelikni lirika torlariga solib, publitsistik ko‘tarinkilik va jo‘shqinlik bilan tarannum etdi. U xilma-xil mavzularni kishining nozik tuyg‘ularini uyg‘otadigan darajada mayin, yoqimli va dilbar qilib kuyladi. Bahorday suluv va daryoday jo‘shqin, hamisha uyg‘oq lirika yaratdi. Bu hayotbaxsh lirikani ko‘p sonli shor muxlislari sevib, qo‘lma-qo‘l qilib o‘qimoqdalar.

Hamid Olimjon nisbatan qisqa vaqt ijod og‘ushida bo‘lishiga qaramasdan, o‘zbek adabiyotini xilma-xil janrdagi jozibali asarlari bilan boyitdi, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. San‘atkorning “Har yurakning bir bahori bor”, “Ishim bordir o‘sha ohuda”, “Ofeliyaning o‘limi”, “O‘rik gullaganda” kabi she‘riyatimiz tarixida yangi tipdagi asarlar sifatida baholana oladigan she‘rlari o‘zbek lirikasining noyob namunalari bo‘lib qoldi. “Zaynab va Omon” dostoni bilan shoir, shak-shubhasiz, yangi yo‘nalishdagi o‘zbek dostonchiligining boshlovchilaridan biri degan bahoga sazovor bo‘ldi. “Muqanna” tragediyasi bilan Hamid Olimjon o‘zbek tragidiyanavisligiga asos solishda Abdurauf Fitrat (“Abulfayzxon” fojiasi muallifi) bilan bir safda turadi¹.

Ikkinchi jahon urushi davrida yozgan “G‘alaba qo‘shig‘i”, “Qo‘lingga qurol ol”, “Yigitlarni frontga jo‘natish”, “Qamal qilingan shahar tepasidagi oy”, “Jangchi Tursun” kabi o‘nlab she‘rlari o‘z davrida vatanparvar qalblarning ko‘ngil madhiyasidek yangradi. Bunday she‘rlarni o‘qigan, tinglagan yoshlar harbiy komissariatga chaqirilmasdanoq

¹ Назаров Б. Китоб номи: XX аср ўзбек адабиётида Ҳамид Олимжон ижодининг ўрни. Ҳамид Олимжон таваллудининг 100 йиллигига бағишланган республика илмий – амалий конференция материаллари. Қарши, 2009, 5-бет.

Date: 3rd December-2024

ko'ngillilar safida frontga o'tlanganliklari haqida ko'pdan - ko'p tarixiy ma'lumotlar borligi sir emas. Davrning adabiy jarayoni hamda ko'p asrlik folklor asarlarimiz haqida yozilgan maqolalarga mutaxassislarimiz hozir ham tez – tez murojaat etadilar.

Hamid Olimjonning zamondoshlari, taniqli adabiyotshunoslarning fikrlariga tayanib aytadigan bo'lsak, shoir tug'ma va noyob iste'dod egasi bo'lgan. Bunga zarracha shubha yo'q, albatta. Shoirning o'n jildlik to'la asarlar to'plamida jamlangan asarlarni ko'zdan kechirgan kishi o'lka manzarasining go'zal tasviri va lirik qahramon kechinmalari orqali faxr – iftixor tuyg'ulariga chulg'anadi. Ayniqsa, shoir asarlaridagi “*Derazamning oldida bir tup o'rik oppoq bo'lib gulladi...*”, “*Men dunyoga kelgan kundanoq, Vatanim deb seni, uyg'ondim*”, “*Bunda qorning taglarida qish, bahor uchun so'ylaydi olqish*”, “*O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston, dostonlarda bitgan guliston*”, “*Daryo tinmay solardi shovqin, qiz ko'ziday qora edi tun*”, “*Vatanning tuprog'idan, shirin ekanmi joning*” misralari xalqimiz dili va qalbidan joy olish bilan birga, ularni vatanparvarlik va do'stlik ruhida tarbiyalovchi, ma'naviy komillikka yetaklovchi badiiy tafakkur namunalari. Albatta, shoirga va XX asr o'zbek adabiyotiga shuhrat keltirgan “*Baxtlar vodiysi*”, “*Shodlikni kulaganimning sababi*”, “*O'rik gullaganda*”, “*O'lka*”, “*O'zbekiston*”, “*Jangchi Tursun*”, “*Rossiya*”, “*Zaynab va Omon*” kabi asarlarning sho'ro tuzumi mafkurasi ta'siridagi ba'zi tasvirlarida bugungi milliy istiqlol mafkuramizga mos kelmaydigan qarashlar mavjudligini ham e'tirof etish lozim. Biroq bu asdarlar o'zining ko'tarinkilik va hayotbaxshlik, yuksak badiiylik va xalqchil g'oyaviylik fazilatlarini bilan XX asr o'zbek adabiyotining nodir sahifalarini tashkil etadi.

Shoirning xalq qahramonligi va erksevarlik g'oyalarini ulug'lovchi “*Muqanna*” dramasi aytildi:

*Xalqqa ayting, men aslo o'lganim yo'q,
Yov qo'liga taslim ham bo'lganim yo'q.
Men elimning yuragida yashayman,
Erk deganning tilagida yashayman², -*

kabi misralari bugungi zamondoshimiz qalbida mustaqilligimizni mustahkamlash, uning qadriga yetishdek tuyg'ularni uyg'otishi, ularni Vatan istiqboli yo'lida fidoyilik ko'rsatishga undashi shubhasizdir.

Chindan ham, bunday shon-sharafli mehnat shoir Hamid Olimjonga o'z vaqtida shuhrat keltiribgina qolmay, bugun – Mustaqillik davrida ham biz bilan bir qatorda, hatto oldingi saflarimizda bora olishi mumkinligini ko'rsatdi.

Hamid Olimjon o'zbek adabiyotidagi ijodiy taqdiri g'oyat murakkab kechgan shoirlardan biridir. Adiblarning badiiy mahoratini ko'rsatishdan ko'ra, ularning qaysi tuzum va tizimga tarafdorligini tekshirish muhimroq deb qarashga odatlangan o'zbek adabiyotshunosligida keyingi paytda sho'ro davrida yashab ijod qilgan bir qator yozuvchilar, jumladan Hamid Olimjon merosiga ham nopisandlik bilan qarash sezilmoqda.

² Хамид Олимжон Ўрик гуллаганда. Шеърлар ва драма. Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990, 122 – бет.



Date: 3rdDecember-2024

Bu hol shoir uchun achinarli, albatta. Aslan mangulikka, juda bo‘limganda, umrzoqlikka da’vogar asarlarnibaholaydigan o‘lchovlar hamhodisalarga yarasha bo‘lishi lozim.

Shoirning yuksak badiiy mahorati darajasidagi she’r sifatida qaraladigan “O‘rik gullaganda” she’riga e’tibor qarataylik:

Terazamning oldida bir tup

O‘rik oppoq bo‘lib gulladi.³

Misralar oddiy, hali hissiyot, tuyg‘u, munosabat mutlaqo aks etmaydi. She’rning keyingi bandlarida gullab turgan o‘rikning latif manzarasi chiziladi. O‘rik gullashida shaksiz go‘zallik bor, lekin u o‘z holicha poeziya bo‘lolmaydi. Hamid Olimjonning sinchkov poetik nigohi o‘rik novdalaridagi gullarda shunchaki ko‘zni quvnatuvchi chechakni emas, balki tiriklik g‘unchalariniko‘radi va buni o‘quvchigaham ko‘rsata oladi. Shuning uchun ham she’rda ularning “*hayot otini*” aytayotgani tasvirlanadi. O‘sha misralarda guldanda g‘o‘ra, undan meva, mevadan mag‘iz, o‘rikdan ko‘chat deganlaridek, hayotning uzluksiz davomiyligi aks etadi. Hayotning shunday go‘zalligi dan o‘zgarlar ham bahramand bo‘lishini istagan shoir gulning totini olib ketgan “*shabboda qurg‘ur*”dan g‘ashlanmasligini ta’kidlaydi.

XX asr o‘zbek adabiyotining atoqli vakili, xassos lirik shoir Hamid Olimjon ijodi bo‘yicha yirik tadqiqotlar yaratgan zabardast olimlardan Sarvar Azimov, Salohiddin Mamajonov, Naim Karimov, Baxtiyor Nazarov kabilar san’atkorning o‘z g‘oyaviy niyatlarini ifodalash maqsadida real hayot hamda tabiatdagi turli-tuman narsa va hodisalarni poetik obraz sifatida muvaffaqiyatli qo‘llanganligini alohida qayd etadilar. Masalan, shoir lirikasiningbadiiy go‘zalligini, uning poetik mahoratini birinchilardan bo‘lib maxsus tadqiq qilgan olim professor Naim Karimov “Hamid Olimjon poeziyasida gul shoirning eng sevimli obrazlaridan biri” bo‘lganligini ko‘plab misollar bilan isbotlab beradi. Keyin “Shoir dunyosi”ga chuqurroq kirib borgan olim akademik Salohiddin Mamajonov Hamid Olimjon ijodiga xos poetik olamlar ko‘lamini yanada kengaytirdi. Shoirning adabiyotshunosligimizda allaqachonlar tan olingan *Baxt, Shodlik, Tole, Vatan, Gul* obrazlari qatoriga *Olov, Quyosh, Nur, Alanga, Mash‘al, Otash, Tong, Tun* kabi yangi poetik obrazlarni qo‘shdi.

Otashnafas shoirimizning lirik merosi yuqorida sanab o‘tilgan poetik obrazlar sanog‘i bilangina cheklanib qolmasligini uning ijodi bilan muntazam tanishuv isbotlab bermoqda. Ma’lumki, Hamid Olimjon ijodida obrazlar ko‘lami keng va rang-barangdir. Aynan ana shu fazilati bilan shoir she’riyati hozirgacha sevib o‘qilmoqda. Shoir ijodini barkamol qilgan, uning go‘zalligini ta’minlagan obrazlardan yana biri daryodir. Daryo o‘z mazmun-mohiyati, badiiy-estetik vazifasining qamrovi bilan *Vatan, Baxt, Shodlik, Gul* obrazlaridan kam ahamiyatga ega emas. E’tibor bersak, daryo obrazi shoirning bir qator she’rlari, balladalari, dostonlari, dramalari, hatto ilmiy va publitsistik maqolalarida ham muntazam tasvirlanganligini ko‘rish mumkin. Ular bir-birini to‘ldiradi, boyitadi.

Daryo shoir ijodiga uning yoshligida ko‘rganlarini, jamiyatda kechayotgan inqilobiy voqea-hodisalarni obrazli ifodalashning eng qulay vositasi sifatida kirib keldi

³ Хамид Олимжон Ўрик гуллаганда. Шеърлар ва драма. Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990, 122 – бет.



Date: 3rdDecember-2024

vamustahkam o‘rin oldi. Men shoirning daryo obrazigamurojaat qilishiga ham ijtimoiy-siyosiy, ham ma’naviy-tarbiyaviy, ham g‘oyaviy-badiiy asoslar bor deb hisoblayman. Bo‘lajak shoir yoshligidan xalqning o‘z ozodligi, erki uchun daryodek to‘lqinlanib kurashga otlanganini, bu muqaddas yo‘lda uning muborak qoni daryo bo‘lib oqqanini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi.

Adabiyotshunos N.Karimov “Hamid Olimjon” nomli asarida shoir hayoti va ijodidan lavhalar keltirar ekan, Jizzax qo‘zg‘olonida qatnashgan xalqning kayfiyati, harakatini yosh Hamid Olimjon nigohi bilan “O‘zandan chiqqan soy asov toshqinga aylanib, o‘z yo‘lidagi bahaybat toshlarni ham oqizib, ag‘darib” ketayotganini, olomon tobora ko‘payib, Eski shahar bilan Yangi shahar qo‘zg‘olonchilarining qo‘shilishini ifodalaydi. Bu manzara shoirning ijtimoiy-siyosiy hayotdan olgan saboqlarining badiiy in‘ikosi tarzida dunyoga kelganligini isbotlaydi⁴.

Daryo Hamid Olimjon she‘rlaridagi lirik qahramonning Vatanga bo‘lgan buyuk va olmas muhabbatining ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki daryo Vatanning bag‘rida oqadi, uni sug‘oradi, atrofni obod qiladi, kerak bo‘lsa, yurtni “*elektrik daryo*” bo‘lib yoritadi, tinim bilmay xizmatini qiladi, har doim uyg‘oq bo‘ladi.

Hamid Olimjon aziz umrini, nodir iste‘dodini, bitmas-tuganmas kuch-g‘ayratini o‘z xalqiga baxshida etgan ulkan qalb egasi edi. O‘ttiz besh yillik qisqa, ammo yorqin, sermazmun hayoti davomida bu ulug‘ zot yaratgan asarlar, amalga oshirgan ishlar, u olib borgan jo‘shqin jamoatchilik faoliyati kishini hayratga soladi.



⁴ Бу ҳақда қаранг: Йўлдош Солижонов. Кўзгудаги ҳаёт. Тошкент-2013, 68-б.